

GENDER TENGLIGI VA INSON HUQUQLARI: YANGI O‘ZBEKISTONDA FALSAFIY-NAZARIY YONDASHUV

Norimonova Gulmira Ulug‘bek qizi

*Andijon davlat pedagogika instituti milliy g‘oya, ma‘naviyat
asoslari va huquq ta‘limi yo‘nalishi talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Yangi O‘zbekiston taraqqiyot bosqichida gender tengligi va inson huquqlari masalasiga bo‘lgan ijtimoiy-falsafiy hamda nazariy yondashuvlar haqida so‘z boradi. Bugungi kunda gender tengligi nafaqat ijtimoiy tenglik, balki inson huquqlari va demokratik qadriyatlarining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Gender tengligi zamonaviy demokratik jamiyatning ajralmas qadriyatlaridan biri sifatida qaraladi va bu prinsipni amalda ro‘yobga chiqarishda inson huquqlari bilan bog‘liqligi asoslanadi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan islohotlar, xususan, ayollar huquqlarini himoya qilish va ularning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirish va davlat siyosatida gender yondashuvni mustahkamlashga qaratilgan chora-tadbirlar falsafiy nuqtai nazardan yoritiladi. Bu kabi izlanishlar gender tengligi va inson huquqlari sohasidagi ilmiy-nazariy qarashlarni boyitish bilan birga, ushbu yo‘nalishda amaliy siyosat va strategiyalarni yanada takomillashtirishga qizmat qiladi, albatta.

Kalit so‘zlar: Gender tengligi, inson huquqlari, Yangi O‘zbekiston, falsafiy yondashuv, ijtimoiy islohotlar, ayollar huquqlari, adolat, milliy qadriyatlar, zamonaviylik, ijtimoiy faollik, gender siyosati, xalqaro tajriba.

Аннотация: В этой статье развитие нового Узбекистана касается гендерного равенства и вопросов прав человека в области прав человека и теоретических подходов. Сегодня гендерное равенство является важной частью не только социального равенства, но и прав человека и демократических ценностей. Гендерное равенство считается одной из неотъемлемых ценностей современного демократического общества, и этот принцип основан на правах человека в реальности. Меры, направленные на защиту реформ в Республике Узбекистан, в частности, защиты прав женщин и укрепление их социально-политической деятельности, а также обогащают экономические возможности и обогащение научного потенциала, конечно, дальнейшего улучшения практической политики и стратегий в этом направлении.

Ключевые слова: гендерное равенство, права человека, Новый Узбекистан, Филифейный, права женщин, справедливость, социальная деятельность, гендерная политика, международный опыт.

Annotation: In this article, the New Uzbekistan's Development is about gender equality and human rights issues on human rights and theoretical approaches. Today,

gender equality is an important part of not only social equality, but also of the human rights and democratic values. Gender equality is considered one of the integral values of modern democratic society, and this principle is based on human rights in reality. The measures aimed at protecting the Reforms in the Republic of Uzbekistan, in particular the protection of women's rights and strengthen their socio-political activity, and enrich the economic opportunities and enriching the scientific potential, of course, further improving practical policies and strategies in this direction.

Keywords: Gender equality, human rights, new Uzbekistan, philosophy, women's rights, justice, social activity, gender policy, international experience

Kirish: Gender tengligi va inson huquqlari masalasi bugungi global ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy tizimda muhim o‘rin egallaydi. Bu kabi masalalar, har bir jamiyatda odamlarning teng huquqlari va erkinliklarini ta‘minlashda asosiy rol o‘ynaydi. O‘zbekistonning Yangi davrida gender tengligini ta‘minlash va inson huquqlarini himoya qilish masalalari davlat siyosatining eng muhim yo‘nalishlaridan biriga aylanib ulgurgan. Bu masala O‘zbekistonning xalqaro hamjamiyat bilan integratsiyasi jarayonida ham katta ahamiyatga ega, chunki gender tengligi va inson huquqlari borasidagi amalga oshirilayotgan islohotlar, nafaqat ichki rivojlanish, balki xalqaro miqyosda mamlakatni obro‘cini oshiradi, albatta. O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, gender tengligi va ayollar huquqlari bo‘yicha bir qator muhim islohotlarni amalga oshirdi. Bularga misol qilib, ayollarni jamiyat hayotining turli jabhalariga jalb qilishi, iqtisodiy va siyosiy jarayonlarda ishtirokini kengaytirish bilan birga, ayollarni o‘qitish va ularga huquqiy bilimlar berish singari chora-tadbirlar kiradi. Xalqaro me‘yorlar, xususan, BMTning gender tengligi va ayollar huquqlarini himoya qilishga oid konvensiyalari, O‘zbekistonning bu yo‘nalishdagi siyosatini shakllantirishda muhim o‘rin egallaydi.

O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan so‘ng, gender tengligini ta‘minlashga oid bir qancha muhim qonunlar va normativ-huquqiy hujjatlar qabul qiladi. Ushbu qonunlar ayollarning huquq va erkinliklarini himoya qilish va ularning iqtisodiy, siyosiy va madaniy sohalaridagi ishtirokini oshirish bilan birga, genderga oid kamsitishlarga qarshi kurashishni ko‘zda tutadi. So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasi ijtimoiy-siyosiy hayotida tub islohotlar amalga oshirilib kelinmoqda. “Yangi O‘zbekiston” konsepsiyasi asosida inson manfaatlari, huquq va erkinliklarini ta‘minlash ustuvor vazifalardan biriga aylanmoqda. Ayniqsa, gender tengligi masalasi zamonaviy jamiyat taraqqiyoti va demokratik islohotlar muvaffaqiyati uchun muhim omil sifatida e‘tirof qilinmoqda. Gender tengligi- erkaklar va ayollar hayotining barcha sohalarida teng huquqli ishtirok qilishi, imkoniyatlaridan bir xil foydalanishi hamda ijtimoiy adolat tamoyillariga asoslangan rivojlanishi nazarda tutadi. Mening fikrimcha, inson huquqlari va gender tengligi bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, bu

tushunchalarning har ikkisi ham adolat, erkinlik va barqaror taraqqiyot tamoyillarini amalga oshirishda muhim ahamiyatga ega. Bu kabi yondashuvlar global miqyosda ham kun tartibidagi asosiy masalalardan biri bo‘lib, BMT va YXHT singari xalqaro tashkilotlar tomonidan qo‘llab-quvvatlanmoqda. O‘zbekiston ham ushbu global tendensiyalardan chetda qolmay, gender siyosatini kuchaytirish, ayollar huquqlarini ta‘minlash, gendder zo‘ravonlikka qarshi kurashish kabi yo‘nalishlarda muhim huquqiy islohotlarni amalga oshirib kelinmoqda. Shu bilan birga, gender tengligi va inson huquqlari masalasiga falsafiy-nazariy yondashuv zarurati kun sayin ortib bormoqda.

Metod: Ushbu tadqiqotda gender tengligi va inson huquqlari muammolari zamonaviy O‘zbekiston jamiyatida qanday falsafiy-nazariy asoslar bilan qaralyotgani, mavjud ijtimoiy-siyosiy holatni qanday aks ettirayotgani va amaliyotda qanday namoyon bo‘layotgani tizimli ravishda o‘rganiladi, albatta. Tadqiqotning uslubiy asoslari quyidagi yo‘nalishlarda quriladi:

1. Ushbu yo‘nalishdagi gender holatiga alohida to‘xtalish kerak bo‘ladi.
2. Tarixiy-tahliliy metod. Gender tengligining rivojlanish bosqichlarini o‘rganish maqsadida tarixiy-tahliliy metod qo‘llaniladi. O‘zbekiston tarixida ayollarning ijtimoiy faolligi va ularning siyosiy, iqtisodiy, madaniy hayotidagi o‘rni bosqichma-bosqich tahlil qilib boriladi.
3. Taqqoslovchi metod: Gender siyosatining O‘zbekiston tajribasi boshqa davlatlar, masalan, Skandinaviya mamlakatlari, AQSH, Turkiya, Malaziya va qo‘shni Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan taqqoslanadi. Bu orqali O‘zbekiston gender siyosatining o‘ziga xos milliy modeli, uning afzallik va kamchiliklari aniqlanadi.
4. Normativ-huquqiy tahlil: Yangi O‘zbekiston davridagi gender siyosatini amaliy jihatdan tahlil qilish uchun qonunchilik bazasi o‘rganiladi. Masalan: “Gender tengli to‘g‘risida”gi Qonun(2019), O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli farmon va qarorlari, “2030-yilgacha Gender tengligini ta‘minlash strategiyasi”, Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Milliy strategiyasi.
5. Falsafiy-nazariy metodologiya. Asosiy metod sifatida falsafiy-nazariy yondashuv tanlanadi. Chunki, gender tengligi masalasi nafaqat huquqiy, balki ijtimoiy-axloqiy, madaniy va ontologik asoslarda shakllanadi.
6. Sistemali yondashuv. Gender tengligi muammosini ijtimoiy hayotning turli sohalari bilan bog‘liq holda tahlil qilish uchun sistemali yondashuv qo‘llaniladi. Gender tengligi masalasi ijtimoiy institutlar-oila, ta‘lim, siyosat, iqtisodiyot va madaniyat bilan bog‘liq bo‘lganligi sababli, har bir yo‘nalishdagi gender holatiga alohida to‘xtaladi.

Natijalar: Tahlil natijalariga ko‘ra:

1. Gender tengligi masalasiga falsafiy yondashuvdagi siljish: Ayol va erkakning jamiyatdagi roli va ularning tengligi masalasida endilikda inson qadri, erkinligi va ijtimoiy adolat tushunchalari bilan bog‘lanmoqda.

2. Normativ-huquqiy bazaning mustahkamlanishi: So‘nggi yillarda O‘zbekistonda gender tengligini ta‘minlash bo‘yicha siyosiy va huquqiy infratuzilma tubdan isloh qilinmoqda. Xususan: 2019-yilda qabul qilingan “Gender tengligi to‘g‘risida”gi Qonun, ayollar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlar kafolatini belgilovchi me‘yoriy hujjatlar, Tashkil qilingan Gender tengligi komissiyalari va Ombudsman institutining faolligi gender huquqlari himoyasining institutsional asosini mustahkamlagan. Bu singari huquqiy asoslar Yangi O‘zbekistonning gender siyosatini davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylantirganini ko‘rsatadi, albatta.

3. Gender tengligi indekslaridagi ijobiy siljishlar: Ayollarning siyosiy ishtiroki ortmoqda: Oliy Majlis deputatlarining 32 foizidan ortig‘ini ayollar tashkil qilmoqda; Ta‘lim va sog‘liqni saqlash sohalarida ayollar soni yuqori bo‘lib, ayniqsa Oliy ta‘limda o‘qiyotgan talabalar orasida ayollarning ulushi 45 foizdan ortgan; Biznes va tadbirkorlik sohalarida faol ayollar soni ko‘paygan bo‘lib, hozirda 215 mingdan ortiq tadbirkor ayol faoliyat yuritib kelmoqda.

Tahlil: Yangi O‘zbekiston davridagi gender tengligi va inson huquqlariga oid yondashuvlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, bu ikki tushuncha huquqiy mezonlar asosida va ijtimoiy-ma‘naviy taraqqiyotning falsafiy negizida ham o‘zaro bog‘liq holda qaralmoqda. Gender tengligi masalasi faqat qonun yokida statistika emas, balki jamiyatning ma‘naviy-axloqiy salohiyatini, adolatga intilishi va madaniy taraqqiyot darajasi bilan bevosita bog‘liq ekani namoyon bo‘lib kelmoqda. “Gender tengligi to‘g‘risida”gi Qonun mavjud bo‘lishiga qaramay, ayrim holatlarda ayollar hali ham ijtimoiy bosim, iqtisodiy to‘siqlar yoki madaniy stereotiplar tufayli o‘z huquqlaridan to‘liq foydalana olmayotganlariga duch kelmoqdamiz. Bu esa, huquqiy islohotlar bilan birga ijtimoiy ong va madaniyatdagi islohotlar ham zarur ekanligini ko‘rsatmoqda. Falsafiy jihatdan, gender tengligi masalasining nafaqat ijtimoiy-huquqiy, balki ma‘naviy-mafkuraviy islohotlar bilan uyg‘un holda olib borilishi zarurligini ko‘rsatmoqda. Global darajada tan olingan haqiqat shundaki, gender tengligi faqat ijtimoiy adolat emas, balki iqtisodiy rivojlanish, barqarorlik va taraqqiyotning ham muhim omilidir. Bu esa, gender tengligi masalasiga faqat ijtimoiy yoki axloqiy nuqtai nazardan emas, balki strategik rivojlanish tamoyili sifatida qarash zarur ekanligini bildiradi.

O‘zbekiston gender siyosatida yutuqlarga erishib kelayotgan bo‘lsa ham, bu sohada yetarlicha chuqur falsafiy-nazariy tadqiqotlar ilib borilmayapti deb o‘ylayman. Gender masalalarining mohiyati, shaxs, jamiyat, adolat, erkinlik kabi kategoriyalar bilan o‘zaro bog‘liqligi hali ham keng ilmiy muhokam qilinmagan.

Xulosa: Ushbu maqoladan xulosa qilib aytganda, Yangi O‘zbekiston gender tengligi sohasida muhim huquqiy va siyosiy yutuqlarga erishgan bo‘lsa ham, bu boradagi falsafiy-nazariy asoslarni kuchaytirish hamda ijtimoiy ongni yangilash va qadriyatlar tizimini modernizatsiya qilish orqali kelgusidagi asosiy vazifalardan biri bo‘lib qilmoqda. Umuman olganda, gender tengligi masalasi Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasining ajralmas bir qismi bo‘lib, uni faqat davlat siyosati emas, balki milliy tafakkur, ijtimoiy ong va axloqiy mezonlari bilan uyg‘un tarzda shakllantirish kerak bo‘ladi. Mening fikrimcha, gender tengligi va inson huquqlari g‘oyalari bugungi O‘zbekiston jamiyatining barqarorligi, adolatparvarligi va ma’naviy yuksalishining asosiy negizlaridan biri sifatida qarashimiz kerak deb o‘ylayman.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Gender tengligi to‘g‘risida”gi Qonuni.- Toshkent,2019.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2030-yilgacha Gender tengligini ta’minlash strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni, PQ-4629-son,2023-yil.
3. O‘zbekiston Respublikasi Inson huquqlari bo‘yicha milliy strategiyasi.- Toshkent:Adliya vazirligi,2021.
4. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi.“Ayollar holati va gender statistikasi 2023”.-Toshkent,2024.
5. BMT Bosh Assambleyasi.Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi.1948-yil,Parij.
6. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzuridagi Qonunchilik muammolari instituti. “Gender siyosati:qonunchilik va ijtimoiy amaliyot”.-Toshkent,2022.
7. Xojiev A.Inson huquqlari umumiy falsafiy mohiyati.//“Falsafa va huquq”,2020.
8. <https://lex.uz>
9. <https://gov.uz>
10. <http://www.insonhuquqlari.uz>